XALQ DEPUTATLARI XATIRCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 3 - iyun VI-55-49-5-77-K/22 Xatirchi tuman hokimligi

Xatirchi tumanidagi “Xuddon” mahalla fuqarolar yig‘inining nomini o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori, 2021-yil 16-noyabrdagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi hamda 2021-yil 25-noyabrdagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyalarining xulosasiga muvofiq Xatirchi tumani komissiyasi tomonidan o‘z hududidagi “Xuddon” mahalla fuqarolar yig‘inining nomini o‘zgartirishga oid taqdim etilgan takliflarni muhokama qilib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xatirchi tuman hokimligining tuman hududidagi 1 ta MFY (keyingi o‘rinlarda – geografik obyektlar) nomlarini qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflari ma'qullansin.

2. Xatirchi tumanidagi nomi o‘zgartiriladigan ayrim geografik obyekt ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xatirchi tuman Statistika bo‘limi (A.Xusanov), O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining tuman bo‘limi (A.Sadiyev), tuman Qurilish bo‘limi (V.Mizamov), mutasaddi hududiy davlat organlari va tashkilotlari mazkur qarorga muvofiq Xatirchi tumanidagi nomi o‘zgartiriladigan geografik obyektni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron

bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (O.Ro‘zimurodov) nomi o‘zgaradigan geografik obyektdagi aholining fuqarolik pasportlariga, yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (O.Bekpo‘latov), Kadastr agentligining tuman bo‘limi (A.Sadiyev), tuman Qurilish bo‘limi (V.Mizamov) bilan hamkorlikda nomi o‘zgartiriladigan geografik obyektning yangi nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta'minlasin.

6. Ushbu qaror “Xatirchi hayoti” gazetasida rasman e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosarlari (B.Ne'matov, J.Rashidov) hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish, oila, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Saidaxmedova) zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Xatirchi tuman Kengashi raisi **S.Nizamov**

Xalq deputatlari Xatirchi tuman
Kengashining
2022 yil 3 iyundagi
VI-55-49-5-77-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xatirchi tumanidagi nomi o‘zgartiriladigan

geografik obyektning

RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning hozirgi nomi	Geografik obyektning yangi nomi	Izoh
1.	“Xuddon” MFY	**Mirishkor MFY**	“Xuddon” mahalla fuqarolar yig‘ini nomining ma'nosi yo‘qligini inobatga olib, normallashtirish maqsadida.